



2017 yil yanvar-noyabr uchun qurilish ishlari

Raqamlar:

Qurilish-montaj ishlari - **29781,3 mlrd.so'm**


Yirik qurilish pudrat tashkilotl-rining ulushi - **31,0 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi - **37,9 %**

Qurilishda norasmiy sektorning ulushi - **31,1 %**

Joriy yilning yanvar-noyabr oylari bo'yicha Respublikada 29781,3 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,6 foizni tashkil etdi va 2016 yilning yanvar-oktyabriga nisbatan 4,9 foiz punktga kamaydi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 9218,6 mlrd.so'mni yoki 111,4 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,4 foiz punktga oshdi.






Hududlar kesimida qurilish ishlari


Ko'pgina viloyatlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Surhondaryo viloyatida yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan 293,5 mlrd. so'm qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 162,3 foizni tashkil etib 88,2 foiz punktga o'sdi, mos ravishda Xorazm viloyatida 159,4 mlrd. so'm (159,4 foiz yoki 70,6 foiz punktga o'sish), Namangan viloyatida 76,6 mlrd. so'm (150,0 foiz yoki 72,9 foiz punktga o'sish), Farg'ona viloyatida 169,2 mlrd. so'm (102,7 foiz yoki 11,3 foiz punktga o'sish).

Shu bilan birga ba'zi hududlarda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida pasayish kuzatildi, hususan Andijon viloyatida 74,5 mlrd. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,5 foiz bilan 39,9 foiz punktga kamaydi. Mos ravishda Sirdaryo 31,6 mlrd. so'm (86,6 foiz yoki 12,5 foiz punktga kamayish), Toshkent viloyati 273,8 mlrd. so'm (79,5 foiz yoki 15,4 foiz punktga kamayish), Qashqadaryo viloyati 513,8 mlrd. so'm (82,8 foiz yoki 6,3 foiz punktga kamayish) qurilish ishlari amalga oshirildi.

2017 yil yanvar-noyabr uchun hududlar kesimida qurilish ishlari




2017 yil yanvar-noyabr uchun O`zbekiston Respublikasi bo`yicha jami qurilish ishlari hajmi va shaharlar ulushi



2017 yil yanvar-noyabr holatiga O`zbekiston Respublikasi bo`yicha qurilish ishlari hajmi o`rtacha 23,5 mln. so`mni tashkil etdi. Bu ko`rsatkich bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Toshkent shahrida 39,9 mln. so`m qayd etilgan bo`lsa, eng past ko`rsatkich Toshkent viloyatida 12,4 mln. so`m qayd etildi.


2017 yil yanvar-noyabr uchun qurilishda band 1 odamga to`g`ri keladigan qurilish ishlari hajmi





Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari




yanvar-noyabr 2016 y.

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 28383,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,3 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 foiz punktga o'sdi.

Joriy davrda respublika bo'yicha nodavlat sektorda qurilish ishlari hajmining o'sish surati Sirdaryo (89,7 foiz), Samarqand (96,8 foiz), Xorazm (93,0 foiz), Jizzax (91,6 foiz) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (94,4 foiz) kamayishi kuzatildi.

yanvar-noyabr 2017 y.



Shu bilan birga ushbu ko'rsatkich Andijon (96,4 foiz), Navoiy (85,4 foiz) Toshkent viloyati (94,2 foiz) va Farg'ona viloyatida (97,2 foiz) ko'payganligi kuzatildi.



O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56